

## GINKO BILOBA L O'SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI, TARAQALISHI VA AHAMIYATI

Anorbayeva Mohinur Abdimanobjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

*Annotation.* Maqolada Ginkgo biloba o'simligining morfologiyasi, botanika tavsifi, tarqalishi va ahamiyati muhokama qilinadi. Ginkgo biloba - ochiq urug'li o'simlik.

**Kalit so'zlar:** sporofill, endosperm, megasporophyll, mikrosporophyll, ikkilamchi yo'g'on ichak, ayol, zigota.

**Аннотация.** В статье обсуждается морфология, ботаническое описание, распространение и значение растения гинкго билоба. Гинкго билоба — растение с открытыми семенами.

**Ключевые слова:** спорофилл, эндосперм, мегаспорофилл, микроспорофилл, вторичная толстая кишка, самка, зигота.

*Annotation.* This article discusses the morphology, botanical description, distribution, and importance of the ginkgo biloba plant. Ginkgo biloba is an open-seeded plant.

**Key words:** sporophyll, endosperm, megasporophyll, microsporophyll, secondary large intestine, female, zygote.

Ginkgo biloba o'simligining barglari va urug'lari xalq tibbiyotida uzoq vaqt davomida ishlatilgan. Bugungi kunda ginkgo ekstrakti ko'plab dori vositalarining tarkibiga kiradi va ularni xotira va aqli faoliyatni yaxshilash, qon aylanishini yaxshilash, oksidlanishga qarshi va yallig'lanishga qarshi vosita sifatida ishlatish mumkin. Shuningdek, ginkgo ekstrakti Altsgeymer kasalligi kabi nevrologik kasalliklarni davolashda yordam beradi. Ginkgo daraxtlari atmosferani tozalashga yordam beradi, karbonat angidridni so'rib olib, kislorod chiqaradi. Shuningdek, ularning soya berishi va havo sifatini yaxshilash xususiyati bor. Ginkgobiloba o'simligi o'zining noyob va chiroyli tashqi ko'rinishi bilan bog'larda, xiyobonlarda ekib ko'paytiriladi.

Ginkgo biloba o'simligining ahamiyati ko'p qirrali:

1. *Ekologik ahamiyati:* Ginkgo daraxtlari atmosferani tozalashga yordam beradi, karbonat angidridni so'rib olib, kislorod chiqaradi. Shuningdek, ularning soya berishi va havo sifatini yaxshilash xususiyati bor.

2. *Salomatlikka foydasi:* Ginkgo bilobaning mevalari va yaproqlaridan tayyorlanadigan preparatlar qon aylanishini yaxshilash, xotirani mustahkamlash va bosh miya faoliyatini yaxshilash xususiyatiga ega. Shu sababli, u ko'plab dorivor preparatlarda qo'llaniladi.

# FAN VA TADQIQOT SAMARALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

[www.academicsbook.com](http://www.academicsbook.com)

Vol: 2 Issue: 2 (2025)

*3. Tarixiy va madaniy ahamiyati:* Ginkgo daraxtlari Xitoyda ming yillar davomida muqaddas daraxtlar sifatida e'tirof etilgan. Ular tinchlik va uzoq umr ramzilaridan biri hisoblanadi.

Ginkgo (*Ginkgo biloba*) — ochiq urug‘li o‘simliklar bo‘limining gingkodoshlar oilasiga mansub hozirgi yagona vakili. Daraxtning bo‘yi 40 m gacha, diametri 1 m gacha; yosh niholi ba’zi nina bargli daraxtlarga o‘xshab ketadi, ammo borabora tashqi ko‘rinishdan terak tusini oladi. Barglari bandli, yelpig‘ichsimon, o‘rtasida o‘yig‘i bor, kuzda to‘kiladi. Ginkgo ikki uyli o‘simlik, erkak va urg‘ochi gullari kichikroq ko‘chalalarga to‘plangan. Urug‘i yumaloq, danakli mevaga o‘xshaydi. Mevasi va urug‘i yeyiladi. Janubiy Xitoyning ba’zi joylaridagina yovvoyi holda o‘sadi. Qrimning janubida va Kavkazning Qora dengiz sohilida ekiladi.

O‘rta Osiyoda ginkgoning barg va yog‘och qoldiqlari yuqori perm va trias davriga tegishli yotqiziqlarda topilgan. Hududda ginkgoning 15 dan ortiq turi o‘sgan. Jumladan 2 turi Janubiy O‘zbekistonda, Tojikiston va Turkmanistonda o‘sganligi aniqlangan. Ginkgoning bir qancha turlari Shimoliy O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va deyarli hamma davlatlarda yo‘ra, bo‘r va uchlamchi davr qatlamlaridan topilgan.

Mikrosporofillari qisqa bandli, har bittasida 2 ta, ba’zan 3—4 ta mikrosporangiy (changdonlar) joylashgan. Mikrosporangiyalida hosil bo‘ladigan mikrosporalar (changlar) sagovniklarning mikrosporasiga o‘xshaydi. Mikrosporaning o’sib, spermiyli gametofitga aylanishi mikrosporangiyidan ajralib chiqmasdan avval uning ichida boradi. Tayyor mikrospora shamol yordamida tarqalib urug‘kurtakka tushadi. Mikrospora bahorda urug‘kurtakning chang kamerasiga tushgandan so‘ng undan ikkita harakatchan spermatozoid hosil bo‘ladi. Spermatozoid tuxum hujayrani urug‘lantirgandan so‘ng zigota, undan keyin murtak hosil bo‘ladi. Urug‘kurtakning integumentidan urug‘ po‘sti hosil bo‘lib, uning tashqipo‘sti yumshoq etli qavatga aylanadi. Urug‘ murtagining taraqqiyoti ko‘pincha umg‘ yerga to‘kilgandan so‘ng boradi. Bu jihatdan ginkgolar ham sagovniklarning taraqqiyotiga o‘xshab ketadi. Ginkgoning urug‘ida tinim davri bo‘lmaydi.

O‘simlik mevalari katta yoshdagi daraxtlardan oktyabr-noyabr oyilarida terib olinadi. Uruglar meva etidan ajratiladi. Ajratilgan uruglarni suvda yaxshilab yuviladi. So‘ngra, quritiladi. O‘simlik urug‘lari maxsus pollarda ekilib, ko‘chat tayyorlanadi. Ko‘chat tayyorlash uchun pollarning substratini unumdarligi yaxshilash, poldagi tuproq, chirigan go‘ng, barg chirindisi va qum aralashmasi asosida tayyorlanishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, *Ginkgo biloba* — balandligi 30 metrdan oshadigan, qishda bargini to‘kadigan siyrak shox-shabbali daraxt. Barglari oddiy, uzun bandli, yaprog‘i yelpig‘ichsimon, ikki bo‘lakli. Poyasining o‘zak qismi kam taraqqiy etgan. Lekin kambiy

# FAN VA TADQIQOT SAMARALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

[www.academicsbook.com](http://www.academicsbook.com)

Vol: 2 Issue: 2 (2025)

va po'stloq parenximasi yaxshi rivojlangan. Ginkgoning ignabargli daraxtlardan farqi shundaki, unda smola hosil bo'lmaydigan o'simlik turidir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'.Pratov, L.Shamsuliyeva, E.Sulaymonov, X.Axunov, K.Ibodov, V.Mahmudov. Botanika (morphologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika). Toshkent - 2006.
2. A.Q. Qayimov, E.T. Berdiyev. "Dendrologiya". Toshkent - 2012.
3. Botanika (o'quv qo'llanma). Toshkent - 2018.
4. Tursunova Gulbahor Sultanova, Komilova Shoira Rafiqova. Botanika asoslari (o'quv qo'llanma). Toshkent - 2009.
5. E.T. Berdiyev, SH.F. Gulamxodjayeva. "Manzarali daraxtlarni ko'paytirish". Toshkent - 2020.
6. "Gul va manzarali o'simliklar o'simliklar florasi va sistematikasi" uslubiy qo'llama. Namangan - 2022.
7. Begmatova, D. M. (2022). Yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvida-xalq pedagogikasining didaktik va akmeologik ahamiyati. Journal of Integrated Education and Research, 1(6), 146-149.
8. Bakhranova, D., Alavutdinova, N., Israilova, S., & Vilchis, V. V. Color Lexemes in Context: Cognitive and Cultural Explorations.
9. Saodat, I. Ko 'k' leksemasining etimologik tavsifi. O'zbekiston, 75.
10. Israilova, S. (2022). "Ko 'k' leksemasi semantikasini yoritishda tezaurus modelidan foydalanish. Computer linguistics: problems, solutions, prospects, 1(1).
11. Mekhrojovna, D. S., & Tolibjonovna, A. P. (2025). Phraseological Worldview through the Prism of Color Semantics: A Comparative Study of Uzbek and Spanish Languages. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(2), 12-14.
12. Mekhrojovna, D. S. (2021). Semantic structure of proverbs. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 343-347.
13. Джалилова, С. М. (2024, November). Цветовые образы в испанском языке: этнолингвистические аспекты. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 150-151).
14. Shamahmudova, A., & Djalilova, S. (2024). Retracted: Discourse strategies of ecology and environment. In BIO Web of Conferences (Vol. 84, p. 04025). EDP Sciences.
15. Джалилова, С. М. (2024, November). Лингвокультурные особенности пословиц испанского языка. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 331-333).